



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

№2

2026



SERVIS

ILMIY-AMALIY JURNAL 2026 -yil, 2-soni

Muassis: Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan 2008-yil 31-dekabrda
0561-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
O‘zR OAK Riyosatining 19.03.2017 y., 239/5-sonli qarori bilan e’tirof etilgan

Tahririyat a’zolari:

Mas’ul kotib:

i.f.d., prof. M.Q.Pardayev

Muharrirlar:

i.f.d., dotsent F.A.Safarov
PhD, dotsent I.M.Pardayeva
PhD, I.Sh.Ernazarova

Texnik muharrir:

katta o‘qituvchi F.O.O‘roqov

Korrektor:

PhD, dotsent v.b.
T.I.Yahyoyev

Sahifalovchi:

PhD, dotsent v.b.
H.N.Ochilova

1 yilda 4 marotaba
chop etiladi.

**O‘zbekiston hududida
tarqatiladi.**

Tahririyat manzili:

140100, Samarqand shahar,
Amir Temur ko‘chasi, 9-uy,

tel.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

faks: +998(366)231-12-53
el.pochta:

samisiservis@mail.ru

Tahrir hay’ati raisi:

M.E.Po‘latov – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rektori,
i.f.d., professor

Tahrir hay’ati raisi o‘rinbosari:

O.M.Pardayev – SamISI prorektori, iqtisod fanlari doktori,
professor

Tahrir hay’ati a’zolari:

M.M.Muxammedov – SamISI professori, iqtisod fanlari
doktori

D.R.Zaynalov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

O.M.Murtazayev – TDIUSF direktori, iqtisod fanlari doktori,
professor

M.R.Boltabayev – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

R.X.Ergashev – QarMII professori, iqtisod fanlari doktori

B.K.G‘oibnazarov – iqtisod fanlari doktori, professor

I.S.To‘xliyev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

K.B.Urazov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

D.H.Aslanova – iqtisod fanlari nomzodi, professor

Q.J.Mirzayev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

B.I.Isroilov – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

G.M.Shodiyeva – SamISI professori v.b., iqtisod fanlari doktori

S.N.Toshnazarov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

R.N.Normaxmatov – SamISI professori, texnika fanlari doktori

A.Bektemirov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

M.T.Alimova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

Z.Dj.Adilova – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

Sh.O.Quvondiqov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

L.N.Xalikova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

F.A.Safarov – SamISI dotsenti, iqtisod fanlari doktori

A.M.Karimova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

I.B.Mattiyev – SamISI professori, pedagogika fanlari doktori

B.F.Boronov – SamISI professori v.b., iqtisod fanlari doktori

A.N.Xoliqulov – SamISI professori, iqtisod fanlari nomzodi

X.A.Raximov – SamISI dotsenti, PhD

S.A.Babanazarova – SamISI dotsenti, PhD

H.N.Ochilova – SamISI dotsenti v.b., PhD

I.R.Berdikulova – SamISI dotsenti v.b., PhD

A.Q.G‘apparov – SamISI dotsenti v.b., PhD

Sevinch Shomurot qizi Arziyeva Gilam ishlab chiqarish korxonalarida iste'molchilar xulq-atvorini o'rganish va marketing qarorlarida qo'llash	147
Xilola Nematovna Ochilova, Mirzohid Azamat o'g'li Iskandarov Boshqaruvda menejment tamoyillarining o'rni, ahamiyati va zaruriyati	151
Nigina Marupovna Usmanova Xizmat ko'rsatish sohasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida tutgan o'rni hamda holat tahlili	155
INNOVATSIYA VA RAQAMLI IQTISODIYOT	
Xayrulla Qilichovich Qarshiboyev Iqtisodiy jarayonlarni modellashirishda chiziqli regressiya modelidan foydalanish	162
Malika Axmad qizi Qurbonova Hududiy boshqaruvda raqamli iqtisodiyot samaradorligini ekonometrik baholash	166
Nargiz Toxirovna Sattarova Mintaqaviy tadbirkorlik subyektlarini raqamli ekotizimga integratsiyalash orqali hududiy raqobatbardoshlikni ta'minlash	169
Gullola Mirkamolovna Toxirova Savdo korxonalarida innovatsion rivojlanish va barqaror iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik	172
Sanjar Safarovich Bazarov Iqlimga moslashuvchan asalarichilikni rivojlantirishda raqamli monitoring tizimlarini baholash	175
MOLIYA, PUL MUOMALASI VA KREDIT	
Shavkat Sobirovich Oltayev Milliy iqtisodiyot taraqqiyotida eksport faoliyatining ahamiyati	180
Nargiza Muzafarovna Babaeva Mikromoliyaviy tashkilotlarning kichik biznesni qo'llab-quvvatlashdagi roli	183
BUXGALTERIYA HISOB, IQTISODIY TAHLIL VA AUDIT	
Тўлқин Исматулла ўғли Яхёев Қурилиш хизматлари кўрсатувчи корхоналарда 5-сон МХХС стандарти асосида активлар ҳисобини юритиш	191
Jahongir Bakhodirovich Ergashev Savdo korxonalari iqtisodiy samaradorligini moliyaviy ko'rsatkichlar asosida tahlil qilish	194
Давлат Комилов Уразов Актуальные вопросы трактовки, классификации и оценки качества аудиторских услуг	198
Asror Maxmanazar o'g'li Yusupov Qo'shma korxonalarda aktivlarni xalqaro standartlar asosida tashkil etishning o'ziga xos jihatlari	205
Alisher Bobaqulovich Ravshanov Chorvachilik xo'jaliklarida qoramollarni hisobga olish muammolari	210
Nilufar Abdaxatovna Abdukadirova Umumiy ovqatlanish korxonalari faoliyati samaradorligini kompleks iqtisodiy tahlil qilish va baholashning zamonaviy yondashuvlari	215
TA'LIM, KADRLAR TAYYORLASH VA PEDAGOGIKA	
Farrux Shadiyorovich Shanazarov Ta'lim va ijtimoiy xizmatlarning inson kapitalini shakllantirishdagi o'rni	218
Зулфия Самиевна Ганиева, Лазиз Абдирашидович Наврузов Социально-когнитивные механизмы формирования математических компетенций: синтез идей Л.С. Выготского и принципов RIE	223
E'TIBORGA MOLIK MASALALAR	
Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев Жамоада яхши етакчининг борлиги – жамоанинг бахти	227

Nigina Marupovna Usmanova – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti, PhD

XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINING MAMLAKAT IJTIMOIIY-IQTISODIY HAYOTIDA TUTGAN O‘RNI HAMDA HOLAT TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu maqolada xizmat ko‘rsatish sohasining milliy iqtisodiyotdagi strategik o‘rni va rivojlanish dinamikasi tahlil qilingan. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi qiyoslanib, sohaning YaIM hamda bandlikdagi ulushi yoritilgan. O‘zbekistonda xizmatlar sohasini modernizatsiya qilish, raqamli transformatsiyani jadallashtirish va inson kapitalidan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: inson kapitali, inson resurslari tahlili, kompleks axborotlar, kompleks ko‘rsatkichlar, uzluksiz hamda tizimli tahlil, metod, model, xizmatlar sohasi, alohida xususiyatlar.

Kirish. So‘nggi o‘n yilliklarda global iqtisodiyotda xizmat ko‘rsatish sohasi yetakchi tarmoq sifatida shakllanib bormoqda. Ayniqsa, rivojlangan mamlakatlarda xizmatlar sohasi umumiy iqtisodiyotning 70-80 foizini tashkil etib, iqtisodiy o‘sishning asosiy drayveriga aylangan¹. Bu jarayon globalizatsiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi, shuningdek, aholi turmush darajasining oshishi bilan uzviy bog‘liq.

Xizmat ko‘rsatish tarmog‘i har qanday mamlakat iqtisodiyotining muhim va ajralmas qismi hisoblanadi. U nafaqat aholining kundalik ehtiyojlarini qondiradi, balki iqtisodiy o‘sishni ta‘minlash, yangi ish o‘rinlari yaratish va milliy daromadni oshirishda ham katta rol o‘ynaydi. Rivojlangan mamlakatlarda umumiy iqtisodiyotda xizmat ko‘rsatish tarmog‘ining ulushi birmuncha yuqori bo‘lsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda o‘rtacha darajani, qoloq mamlakatlarda esa juda kam darajani tashkil qiladi.

An‘anaviy iqtisodiy tushunchalarda sanoat va qishloq xo‘jaligi yetakchi tarmoqlar hisoblangan bo‘lsa-da, hozirgi davrda xizmat ko‘rsatish sohasi iqtisodiyotning “uchinchi to‘lqini” sifatida e‘tirof etiladi. Bu soha nafaqat o‘z-o‘zidan rivojlanadi, balki boshqa tarmoqlarning samaradorligini oshirishga, ularga qo‘shimcha qiymat yaratishga yordam beradi. Xususan, moliyaviy xizmatlar, transport va logistika, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari kabi yo‘nalishlar zamonaviy iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylangan.

O‘zbekiston sharoitida ham xizmat ko‘rsatish sohasi iqtisodiyotning muhim tarmog‘i sifatida rivojlanib bormoqda. Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida xizmatlar sektori yanada kengayib, iqtisodiyotning diversifikatsiyalashiga va raqobatbardoshligining oshishiga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, 2021-yildan boshlab qabul qilingan davlat dasturlari va qarorlar xizmatlar sohasini rivojlantirishda muhim bosqich bo‘lib xizmat qilmoqda².

Biroq, xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanishida bir qator muammolar va cheklovlar ham mavjud. Ayniqsa, infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, kadrlar salohiyatining pastligi, xizmatlar sifatini baholash tizimining takomillashmaganligi va raqamli transformatsiyaning sekinligi kabi omillar soha rivojlanishiga to‘sqinlik qilishi mumkin. Ilmiy tadqiqotlardan biri shuni ta‘kidlaydiki, xizmatlar sohasining barqaror rivojlanishi uchun nafaqat sarmoya kiritish, balki inson kapitalini rivojlantirish, institutsional muhitni yaxshilash va raqamli texnologiyalarni joriy etish zarur³.

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi globallashuv sharoitida tashkilotlar va davlatlar oldida turgan eng muhim vazifalardan biri — xizmat ko‘rsatish sohasini samarali rivojlantirish, uning iqtisodiyotdagi ulushini oshirish va soha sifatini xalqaro standartlarga moslashtirishdir. Mehnat bozori tobora raqobatbardosh bo‘lib borayotgan bir paytda xizmatlar sohasining rivojlanishi yangi ish o‘rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish va iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash uchun strategik ahamiyat kasb etadi.

Dolzarblikni ta‘minlovchi asosiy omillardan biri — rivojlangan mamlakatlarda xizmatlar sohasining iqtisodiyotdagi ulushi 70-80 foizga yetgan bo‘lsa, O‘zbekistonda bu ko‘rsatkich hali

¹ World Bank. (n.d.). Services, value added (% of GDP). <https://data.worldbank.org/indicator/NV.SRV.TOTL.ZS>

² IMF. (n.d.). World Economic Outlook Database. <https://data.imf.org/en/news>

³ Statbase.org. (n.d.). World Services Value Added Share. <https://statbase.org/data/wld-services-value-added-share>

50 foiz atrofida ekanligi va o‘shish salohiyatining katta ekanligidir. Bu esa sohani yanada rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar mavjudligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, raqamli iqtisodiyotning talablariga mos xizmatlarni rivojlantirish, xizmatlar sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish, xizmatlar eksportini oshirish va aholi turmush darajasini yaxshilash zamonaviy davrning eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Xususan, ta’lim, tibbiyot, madaniyat va dam olish xizmatlari inson kapitalini rivojlantiradi, bu esa uzoq muddatda iqtisodiy o‘shishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ilmiy adabiyotlarda xizmat ko‘rsatish sohasining iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni sohasida qator xalqaro va milliy olimlar tomonidan keng ko‘lamli ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, IMF, Jahon banki va OECD kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan xizmatlar sohasining YaIMdagi ulushi, bandlikdagi roli va eksport salohiyati bo‘yicha tizimli hisobotlar tayyorlangan¹.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasini o‘rganuvchi tadqiqotlarda xizmatlar sohasining “uchinchi sektor” sifatida shakllanishi, sanoat iqtisodiyotidan postindustrial jamiyatga o‘tish jarayonlari keng yoritilgan. Shu bilan birga, xizmatlar sohasining iqtisodiy o‘shish, innovatsiyalar va bandlik ustida ta’sirini o‘rganuvchi ilmiy ishlar mavjud².

O‘zbekiston tadqiqotchilaridan mamlakatimizda xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanish dinamikasi, sohaga oid davlat siyosati va qonunchilik bazasi tahlil qilingan. Ushbu olimlarning ilmiy ishlarida xizmatlar sohasining YaIMdagi ulushining o‘zgarishi, sohalar bo‘yicha statistik ko‘rsatkichlar va rivojlanish tendensiyalari o‘z aksini topgan. Biroq xizmatlar sohasini rivojlantirishning mahalliy sharoitlarga moslashuvi, ayniqsa, raqamli transformatsiya, inson kapitalini rivojlantirish va xizmatlar eksportini oshirish bo‘yicha amaliy mexanizmlar yetarlicha o‘rganilmagan. Shu jihatdan tadqiqot xizmat ko‘rsatish sohasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o‘rni va holatini chuqur tahlil qilishni talab etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida xizmat ko‘rsatish sohasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o‘rni va holatini aniqlash maqsadida quyidagi metodologik yondashuvlardan foydalanildi.

Tizimli yondashuv orqali xizmat ko‘rsatish sohasining funksional yo‘nalishlari — savdo, transport, aloqa, ta’lim, sog‘liqni saqlash, turizm, moliya va bank xizmatlari kabi tarmoqlar iqtisodiyot bilan o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilindi. Qiyosiy tahlil usuli yordamida rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlardagi xizmatlar sohasi ko‘rsatkichlari solishtirildi. Bu esa xizmatlar sohasining turli iqtisodiy sharoitlardagi o‘rni va ahamiyatini aniq ko‘rish imkonini berdi.

Abstrakt-mantiqiy fikrlash yondashuvi orqali xizmat ko‘rsatish sohasining iqtisodiyotdagi o‘rningi nazariy asoslari, uning boshqa tarmoqlar bilan o‘zaro ta’siri va rivojlanish omillari tadqiq etildi. Induksiya va deduksiya usullari asosida xalqaro va mahalliy tajriba natijalari umumlashtirildi hamda xizmatlar sohasi rivojlanishining umumiy qonuniyatlari aniqlandi.

Analiz va sintez usullari asosida xizmat ko‘rsatish sohasi iqtisodiyotga qanday ta’sir ko‘rsatishi — YaIMdagi ulushi, bandlik darajasi, infratuzilma rivojlanishi, aholi turmush darajasi kabi yo‘nalishlar bo‘yicha o‘rganildi. Monografik yondashuv xizmatlar sohasi, iqtisodiy o‘shish va inson kapitali o‘rtasidagi munosabatlarga oid ilmiy ishlar tahlilida qo‘llanildi. Tadqiqotning asosiy manbalari sifatida IMF, Jahon banki, OECD va Statbase.org ma’lumotlar bazalari, O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid normativ-huquqiy hujjatlari asos bo‘lib xizmat qildi.

Tahlil va natijalar. Quyida xizmat ko‘rsatish sohasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o‘rni va holati bo‘yicha o‘tkazilgan tahliliy yondashuv asosida olingan natijalar keltiriladi.

IMF, World Bank va OECD xalqaro tashkilotlar ma’lumotlariga ko‘ra rivojlangan mamlakatlarda xizmat ko‘rsatish tarmog‘ining YaIMdagi ulushi o‘rtacha 70-80 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, bandlikdagi ulushi 65-75 foizni, xizmatlar eksporti esa o‘rtacha 30 foizni tashkil qilgan³.


¹ World Bank. (n.d.). Services, value added (% of GDP). <https://data.worldbank.org/indicator/NV.SRV.TOTL.ZS>

² Statbase.org. (n.d.). World Services Value Added Share. <https://statbase.org/data/wld-services-value-added-share>

³ <https://data.worldbank.org/indicator/NV.SRV.TOTL.ZS>


Xususan 2025-yilda AQSHda xizmatlar sohasining YAIMdagi ulushi 77 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, Buyuk Britaniyada bu ko‘rsatkich 79 foizni, Fransiya 78 foizni, Yaponiyada 72 foizni tashkil qilgan¹.

Rivojlangan mamlakatlarda xizmatlar sohasini eng pastlagan darajasi COVID-19 davriga to‘g‘ri keldi (1-rasm).



1-rasm. Rivojlangan mamlakatlarda xizmatlar hajmining o‘zgarish dinamikasi²

Rivojlanayotgan mamlakatlarda bu ko‘rsatkich birmuncha farq qiladi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda xizmatlar sohasining YAIMdagi o‘rtacha 50-65 foizni tashkil qilsa, bandlik darajasi 45-60 foizni, xizmatlar essporti esa 15-25 foizni tashkil qiladi. Xususan, 2025-yilda Hindistonda xizmatlar hajmi YAIMning 55 foizini tashkil qilsa, Braziliyada 63 foizni, Turkiyada 56 foizni tashkil qilgan.



2-rasm. Dunyoda hamda mamlakatimizda xizmatlar sohasining YAIMdagi ulushining dinamik o‘zgarishi¹


¹ <https://data.imf.org/en/news>

² <https://data.imf.org/en/news> ma'lumotlari asosida ishlab chiqildi.

Iqtisodiyoti sekin rivojlanayotgan mamlakatlarda, Nigeriyada 40 foiz, Efiopiyada 37 foiz, Afg'onistonda 45 foizni tashkil qilgan².

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohatlar natijasi o'laroq iqtisodiyotning barcha tarmoqlari, xususan, xizmat ko'rsatish tarmog'i rivojlanib bormoqda. Bunda ushbu sohani rivojlanishiga qaratilgan qonun hujjatlarida belgilangan vazifalarning amaliyotda ishlayotganligi juda katta ahamiyatga ega. Avvalo, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-maydagi **“Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori** ushbu sohani rivojlantirishda muhim bosqich bo'ldi. Ushbu hujjatda xizmatlar sektorini iqtisodiyotning asosiy drayveriga aylantirish, xizmatlar hajmini keskin oshirish va yangi ish o'rinlari yaratish vazifalari belgilangan. Keyingi muhim hujjatlardan biri — O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **PQ-104-son qarori** bo'lib, unda 2021–2023-yillarda xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturi tasdiqlangan. Ushbu dasturda hududlarda xizmatlar infratuzilmasini kengaytirish, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va xizmatlar turini diversifikatsiya qilish ko'zda tutilgan. Natijada mamlakat YAIM tarkibida o'z hissasini oshirib bormoqda.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rish mumkinki mamlakatimizda xizmat ko'rsatish tarmog'ining YAIMdagi ulushi butun dunyoda bo'lgani kabi COVID-19 sababli 2019-2021-yillar oralig'ida kamaygan bo'lsa keyingi 2022-2024-yillar davomida o'sish tendensiyasiga ega. 2025-yilda mamlakatimizda xizmatlar sohasining umumiy hajmi 887 705,9 mlrd so'mni tashkil qilib YAIMdagi ulushi 50,2 foizni tashkil qilgan.



3-rasm. O'zbekiston Respublikasida 2025-yilda sohalar bo'yicha yaratilgan qo'shilgan qiymatlarning tarkibiy tahlili³

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rish mumkinki, mamlakatimizda xizmat ko'rsatish sohasi tomonidan yaratilgan qo'shilgan qiymat hajmi umumiy iqtisodiyotda 50,2 foizni tashkil qilar

¹ <https://statbase.org/data/wld-services-value-added-share> ma'lumotlari asosida ishlab chiqildi.

² <https://statbase.org/data/wld-services-value-added-share>

³ stat.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi

ekan. Keyingi o‘rinlarda 22 foiz bilan ishlab chiqarish, 17 foiz bilan qishloq xo‘jaligi hamda boshqa foizlar bilan qolgan sohalar egallagan.

Xizmatlar sohasining o‘zi ko‘plab sohalarini o‘z ichiga olib har bir sohaning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida o‘z o‘rni mavjud.

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasida xizmatlar tarmog‘i sohalarining statistik ko‘rsatkichlari

№	Xizmat ko‘rsatish sohasi	2021	2022	2023	2024	2025
1	Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilitatsiya qilish	1 482,60	1 562,20	1 678,70	2 470,50	3 091,60
2	Qurilish	67 946,70	81 010,90	92 810,80	107 113,90	129 224,10
3	Ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va mototsikllarni ta‘mirlash	50 155,30	59 083,10	74 826,60	89 288,20	107 595,50
4	Tashish va saqlash	40 540,90	48 694,20	61 596,20	78 555,10	97 301,40
5	Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	34 550,80	51 245,50	69 023,50	87 520,10	107 898,90
6	Axborot va aloqa	13 357,40	18 348,40	26 311,50	36 978,80	52 207,40
7	Moliyaviy va sug‘urta faoliyati	20 157,40	33 778,00	43 946,30	61 354,90	78 338,00
8	Ko‘chmas mulk bilan operatsiyalar	41 375,80	48 673,00	58 641,70	86 702,40	90 850,30
9	Professional, ilmiy va texnik faoliyat	9 631,50	11 538,40	14 599,90	18 348,90	22 407,90
10	Boshqarish bo‘yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko‘rsatish	8 962,70	11 199,20	14 762,40	18 019,90	23 514,60
11	Ta‘lim	47 522,30	59 874,50	71 951,50	85 658,60	103 318,10
12	Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	21 600,00	25 920,30	31 943,70	37 653,30	43 127,90
13	San‘at, ko‘ngil ochish va dam olish	3 767,30	4 663,20	6 038,70	7 341,90	9 334,10
14	Boshqa turdagi xizmatlar ko‘rsatish	8 388,30	9 522,50	11 914,80	15 610,70	19 496,10
	Jami	369439,00	465113,40	580046,30	732617,20	887705,90


Jadval ma‘lumotlaridan ko‘rish mumkinki, mamlakatimizda xizmatlar sohasi bo‘yicha asosan 13 ta sohaning statistikasi alohida olib borilsa, qolgan xizmatlar sohasi bo‘yicha ma‘lumotlar umumlashtirilgan holda olib boriladi.

Ma‘lumotlardan ko‘rish mumkinki, mamlakatimizda xizmat ko‘rsatish tarmog‘ining asosiy katta sohasi bu qurilish tarmog‘i hisoblanadi. Keyingi o‘rinlarni savdo, yashash hamda ovqatlanish va ta‘lim tashkil qilgan.

Xulosa va takliflar. O‘tkazilgan ilmiy tahlillar va amaliy kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, xizmat ko‘rsatish sohasi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida strategik ahamiyatga ega tarmoq hisoblanadi. Xizmatlar sohasining rivojlanishi iqtisodiy o‘sishni jadallashtiradi, bandlikni ta‘minlaydi, infratuzilmani rivojlantiradi va aholi farovonligini oshiradi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

Birinchidan, xizmatlar sohasini iqtisodiyotning yetakchi tarmog‘iga aylantirish maqsada-



4-rasm. O‘zbekiston Respublikasida xizmatlar tarmog‘i sohalarining umumiy xizmatdagi ulushlari

didat sohaga qaratilgan investitsiyalarni oshirish tavsiya etiladi. Xususan, transport va logistika, axborot-kommunikatsiya, moliyaviy xizmatlar kabi strategik sohalariga sarmoya kiritish orqali xizmatlar sohasining YaIMdagi ulushini 60 foizgacha yetkazish mumkin.

Ikkinchidan, xizmatlar sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish va xizmatlar eksportini rag‘batlantirishga alohida e‘tibor qaratish kerak. Ayniqsa, IT-xizmatlar, turizm, transport va professional xizmatlar eksportini oshirish orqali valyuta tushumlarini ko‘paytirish mumkin.

Uchinchidan, xizmatlar sohasida bandlikni ta‘minlash imkoniyatlarini kengaytirish muhim. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni xizmat ko‘rsatish sohasida rag‘batlantirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va aholi daromadlarini oshirish uchun qulay sharoit yaratish lozim.

To‘rtinchidan, xizmatlar sohasining raqamli transformatsiyasini tezlashtirish zarur. Elektron hukumat, raqamli bank xizmatlari, onlayn ta‘lim va telemeditsina kabi innovatsion xizmatlarni keng joriy etish orqali soha samaradorligini oshirish mumkin.

Beshinchidan, xizmatlar sohasi uchun malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish kerak. Ta‘lim muassasalarida xizmatlar menejmenti, turizm, moliya va axborot texnologiyalari yo‘nalishlarida zamonaviy o‘quv dasturlarini joriy etish orqali soha uchun kerakli mutaxassislarni tayyorlash mumkin.

Oltinchidan, xizmatlar sohasini rivojlantirish institutsional muhitini yaxshilash lozim. Xizmatlar sifatini nazorat qilish, iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish va adolatli raqobat muhitini ta‘minlash orqali soha ishonchini mustahkamlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. World Bank. (n.d.). Services, value added (% of GDP). <https://data.worldbank.org/indicator/NV.SRV.TOTL.ZS>
2. IMF. (n.d.). World Economic Outlook Database. <https://data.imf.org/en/news>
3. Statbase.org. (n.d.). World Services Value Added Share. <https://statbase.org/data/wld-services-value-added-share>
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-maydagi "Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-3201-son qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 8-iyundagi "2021-2023 yillarda xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturini tasdiqlash to‘g‘risida"gi PQ-104-son qarori.
6. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. (2025). O‘zbekiston Respublikasida sohalar bo‘yicha yaratilgan qo‘shilgan qiymatlarning tarkibiy tahlili. <https://stat.uz>
7. Mamurov, S. I., & Saparova, I. E. (2025). HRM and digitalization: Modern approaches and opportunities. Labor Economics and Human Capital, 4(2), 110-121. <https://laboreconomics.uz/index.php/lehc/article/view/33>
8. Davenport, T. H., & Ronanki, R. (2018). Artificial intelligence for the real world. Harvard Business Review, 96(1), 108-116.
9. Gabidullina, G., & Khamitova, A. (2022). Evolyutsiya kompetentsiy pri postroenii kar’ery kak rezul’tat tsifrovoy transformatsii. Ekonomika i Upravlenie, (3/165), 129-138. <https://doi.org/10.34773/EU.2022.3.24>
10. Kamilova, N. (2025). Economic digitalization: The impact of new technologies on the labor market. Scientific JL.com Journal.
11. Nosratabadi, S., Zahed, R. K., Ponkratov, V. V., & Kostyrin, E. V. (2022). Artificial intelligence models and employee lifecycle management: A systematic literature review. arXiv. <https://doi.org/10.48550/arXiv.2209.07335>
12. Ashurbaev, O., & Saidkulov, M. (2024). Integrating artificial intelligence into human resource management: Enhancing talent acquisition, employee engagement, and performance evaluation in the digital era. International Journal of Artificial Intelligence, 3(1), 45-56.
13. Aydin, O., Karaarslan, E., & Narin, N. G. (2024). Artificial intelligence, VR, AR and Metaverse technologies for human resources management. arXiv. <https://doi.org/10.48550/arXiv.2406.15383>
14. Brougham, D., & Haar, J. M. (2018). Smart technology, artificial intelligence, robotics, and algorithms (STARA): Employees’ perceptions of automation advancements. Management Review Quarterly, 68(2), 123-142.
15. Oxford Insights. (2024). Government AI Readiness Index 2024. <https://oxfordinsights.com/wp-content/uploads/2025/06/2024-Government-AI-Readiness-Index>

Н.Усманова Роль сферы услуг в социально-экономической жизни страны и анализ её состояния	N.Usmanova The Place and Condition Analysis of the Service Sector in the Socio-Economic Life of the Country
Аннотация. В данной статье анализируется стратегическая роль и динамика развития сферы услуг в национальной экономике. Сопоставляется опыт развитых и развивающихся стран, освещается доля сектора в ВВП и занятости населения. Выдвигаются научно-практические рекомендации по модернизации сферы услуг в Узбекистане, ускорению цифровой трансформации и повышению эффективности использования человеческого капитала. Ключевые слова: человеческий капитал, анализ человеческих ресурсов, комплексная информация, комплексные показатели, непрерывный и системный анализ, метод, модель, сфера услуг, специфические особенности.	Abstract. This article analyzes the strategic role and development dynamics of the service sector within the national economy. The experience of developed and developing countries is compared, and the sector's share in GDP and employment is highlighted. Scientific and practical recommendations have been put forward for modernizing the service sector in Uzbekistan, accelerating digital transformation, and increasing the efficiency of human capital utilization. Keywords: human capital, human resource analysis, comprehensive information, comprehensive indicators, continuous and systematic analysis, method, model, service sector, specific features.

ISSN 2091-5187

❧ “SERVIS” ❧

Jurnal Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tahririyat
bo‘limida nashrga tayyorlandi.

15.05.2026-yilda terishga berildi. 26.05.2026-yilda bosishga ruxsat etildi. Ofset
bosma qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60x84_{1/8}. “Times” garniturasini. Ofset bosma usuli.
Shartli bosma tabog‘i 15,4. Hisob-nashriyot
tabog‘i 14,37. Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 0105A/26

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining
matbaa bo‘limida chop etildi.
Litsenziya № 025316.
Reestr № X-119112.

Manzil: Samarqand shahri, Shoxruh ko‘chasi, 60-uy.

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2026.